
"Ibn Sino" mahallasida ichki yo'llari hamda piyodalar yo'laklari asfal't qilinmoqda

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "Ibn Sino" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi ichki yo'llarning 3 kilometr qismi asfal't qilinishi belgilangan. Hozirda ichki yo'llar hamda piyodalar yo'laklarini asfal'tlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlar uchun qaror asosida 1.5 mlrd. so'm mablag' ajratilgan.

2023-04-05 11:00:01